



COMPOSITION, CHRONOLOGY AND MUSEUMIFICATION ISSUES OF MEDIEVAL ARCHAEOLOGICAL COLLECTIONS OF THE SAMARKAND STATE MUSEUM-RESERVE

Sukhrob Eshpulotov

Independent Researcher

Museum of the History of Uzbekistan

Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: medieval archaeology, archaeological collection, Samarkand, Afrasiab, museum collections, urban culture, craftsmanship, Great Silk Road, Timurid period, museology, exhibition.

Received: 13.06.26

Accepted: 14.06.26

Published: 15.06.26

Abstract: This article analyzes the scientific and cultural potential of medieval archaeological collections preserved in the фондс of the Samarkand State Museum-Reserve. The research is based on a комплекс of artifacts dating from the 5th to the 15th centuries, covering three historical stages: the Early Middle Ages, the High Middle Ages, and the Timurid period. The collections include ceramic, metal, glass, and bone objects, as well as architectural elements, which are classified according to chronological and functional criteria. The results of the analysis demonstrate that the development of urban culture, craftsmanship, trade relations, religious beliefs, and architecture in the territory of Uzbekistan occurred as a continuous evolutionary process. The findings also show that Central Asia functioned as a unified cultural and economic space within the framework of the Great Silk Road.

From a museological perspective, the potential of these collections for creating thematic exhibitions and specialized museums is substantiated.

SAMARQAND DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI O'RTA ASRLAR DAVRIGA OID ARXEOLGIK KOLLEKSIYALARINING TARKIBI, XRONOLOGIYASI VA ULARNI MUZEYLASHTIRISH MASALALARI

Sukhrob Eshpulotov

O'zR Fanlar Akadimiyasi O'zbekiston tarixi muzeyi

Mustaqil tadqiqotchisi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'rta asrlar arxeologiyasi, arxeologik kolleksiya, Samarqand, Afrosiyob, muzey fondlari, shahar madaniyati, hunarmandchilik, Buyuk Ipak yo'li, Temuriylar davri, muzeyshunoslik, ekspozitsiya.

Annotatsiya: Maqolada Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan o'rta asrlar arxeologik kolleksiyalarining ilmiy-madaniy salohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot V-XV asrlar oraliqidagi uch tarixiy bosqich - ilk o'rta asrlar, rivojlangan o'rta asrlar va temuriylar davriga oid ashyolar majmuasiga asoslanadi. Kolleksiylar tarkibiga kiruvchi sopol, metall, shisha, suyak buyumlar, me'moriy detallar xronologik va funksional jihatdan tasniflanadi. Tahlil natijalari o'zbekiston hududida shahar madaniyati, hunarmandchilik, savdo aloqalari, diniy qarashlar hamda me'morchilik taraqqiyoti uzluksiz evolyutsion jarayon sifatida kechganini ko'rsatadi. Topilmalar O'rta Osiyoning Buyuk Ipak yo'li doirasidagi yagona madaniy-iqtisodiy makon bo'lganini namoyish etadi. Muzeyshunoslik nuqtai nazaridan kolleksiyalarning tematik ekspozitsiyalar va ixtisoslashgan muzeylar tashkil etishdagi imkoniyatlari asoslanadi.

СОСТАВ, ХРОНОЛОГИЯ И ВОПРОСЫ МУЗЕИФИКАЦИИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ КОЛЛЕКЦИЙ СРЕДНЕВЕКОВОГО ПЕРИОДА САМАРКАНДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

Сухроб Эшпулотов

Независимый исследователь

Музей истории Узбекистана Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: археология средневековья, археологическая коллекция, Самарканд, Афросиаб, музейные фонды, городская культура, ремесленничество, Великий шелковый путь, эпоха Тимуридов, музееведение, экспозиция.

Аннотация: В статье анализируется научно-культурный потенциал археологических коллекций средневекового периода, хранящихся в фондах Самаркандского государственного музея-заповедника. Исследование основано на комплексе артефактов, относящихся к трем историческим этапам V–XV вв.: раннему средневековью,

развитому средневековью и эпохе Тимуридов. Коллекции включают керамические, металлические, стеклянные и костяные изделия, а также архитектурные детали, которые классифицируются по хронологическим и функциональным признакам. Результаты анализа показывают, что развитие городской культуры, ремесленного производства, торговых связей, религиозных представлений и архитектуры на территории Узбекистана происходило как непрерывный эволюционный процесс. Археологические находки демонстрируют, что регион Средней Азии представлял собой единое культурно-экономическое пространство в рамках Великого шелкового пути.

С точки зрения музееведения обосновываются возможности использования данных коллекций при создании тематических экспозиций и специализированных музеев.

Kirish. Oʻrta Osiyo hududida oʻrta asrlar davri (V-XV asrlar) siyosiy tuzum, shaharsozlik, hunarmandchilik, diniy qarashlar va madaniy aloqalar tubdan oʻzgargan tarixiy bosqich hisoblanadi. Ushbu davr moddiy madaniyatini yoritishda arxeologik kolleksiyalar muhim manba boʻlib xizmat qiladi. Ayniqsa, Samarqand vohasi va unga tutash hududlardan yigʻilgan arxeologik ashyolar oʻrta asrlar madaniyatining evolyutsiyasi, hududlararo aloqalar va sivilizatsion uzviylikni aniqlash imkonini beradi.

Samarqand davlat muzey-qaʼriqxonasi fondlarida ilk oʻrta asrlar (V-IX asrlar), rivojlangan oʻrta asrlar (IX-XIII asrlar) va temuriylar davri (XIV-XV asrlar)ga oid yirik kolleksiyalar jamlangan. Mazkur kolleksiyalar shahar madaniyati, diniy eʼtiqodlar, ishlab chiqarish texnologiyalari, xalqaro savdo aloqalari hamda meʼmorchilik va sanʼat taraqqiyotini kompleks oʻrganish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi - Samarqand davlat muzey-qaʼriqxonasi fondlaridagi oʻrta asrlar arxeologik kolleksiyalarining ilmiy mazmuni, hududiy qamrovi va muzey ekspozitsiyalarida qoʻllash imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Metodlar. Tadqiqotning manba bazasini Samarqand davlat muzey-qaʼriqxonasi fondlarida saqlanayotgan oʻrta asrlar davriga oid arxeologik kolleksiyalar tashkil etadi. Kolleksiyalar inventar

raqamlari (A-, OA-, KA- seriyalari) asosida tizimlashtirildi va davriy jihatdan uch bosqichga ajratildi:

- ilk oʻrta asrlar (V–IX asrlar);
- rivojlangan oʻrta asrlar (IX–XIII asrlar);
- temuriylar davri (XIV–XV asrlar).

Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllandi:

- tipologik va xronologik tahlil;
- hududiy taqqoslash;
- madaniy-tarixiy talqin;
- muzeyshunoslik (ekspozitsion) tahlil.

Ashyolarning funksional guruhlari (maishiy, diniy, meʼmoriy, hunarmandchilik, savdo-aloqa) boʻyicha tasnifi amalga oshirildi.

Natijalar. Samarqand davlat muzey-qoʻriqxonasi arxeologik kolleksiyalari xronologik jihatdan oʻrta paleolit davridan to XIX asrgacha boʻlgan katta davrni oʻz ichiga oladi. Oʻzbekiston tarixini davrlashtirishning umumqabul qilingan prinsiplariga muvofiq muzey-qoʻriqxonaning mavjud arxeologik kolleksiyalaridan kelib chiqib quyidagi davrlarga boʻlish mumkin:

- oʻrta paleolit (miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklar)
- yuqori paleolit (miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar)
- neolit (miloddan avvalgi 6-4 ming yilliklar)
- eneolit (miloddan avvalgi 4-3 ming yilliklar)
- bronza (miloddan avvalgi 3-2 ming yilliklar)
- qadimgi davr (miloddan avvalgi I ming yillik boshlari-milodiy V asrlar)
- ilk oʻrta asrlar (V-IX asrlar)
- rivojlangan oʻrta asrlar (IX-XIII asrlar)
- temuriylar davri (XIV-XV asrlar)
- xonliklar davri (XVI-XIX asrlar)

Ushbu maqolada muzey-qoʻriqxonaning oʻrta asrlar davriga oid kolleksiyalari tahlil qilindi.

Ilk oʻrta asrlar davriga oid arxeologik kolleksiyalar oʻrta Osiyo hududida siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarning tubdan oʻzgarishi bilan xarakterlanadigan muhim tarixiy bosqichni yoritadi. V-IX asrlar oraligʻida shaharsozlik tizimlarining takomillashuvi, hunarmandchilik va savdo aloqalarining kengayishi kuzatiladi. Mazkur davrga oid moddiy manbalar oʻtroq va koʻchmanchi madaniyatlar oʻzaro taʼsirini aks ettiradi.

Samarqand vohasida aniqlangan kolleksiyalar ilk oʻrta asrlar madaniyatini oʻrganishda yetakchi oʻrin tutadi. Afrosiyob shaharchasidan topilgan koʻplab sopol, metall, shisha va suyak buyumlar majmualari [1] (OA-8, OA-16, OA-28, OA-31, OA-68, OA-70, OA-71, OA-74, OA-89–OA-94, OA-100, OA-105, OA-110–OA-114, OA-117–126, OA-127) Afrosiyobning V-IX asrlarda yirik siyosiy va madaniy markaz boʻlganini tasdiqlaydi.

Ilk oʻrta asrlar davrining diniy-marosim madaniyati ostadonlar, ularning qopqoqlari va haykalchalar orqali yaqqol namoyon boʻladi. Samarqand va uning atroflaridan topilgan ostadonlar va ularning boʻlaklari (A-21, A-22, A-29, A-30, A-252, A-362, A-403, A-404, A-414, A-482, A-537, A-544, A-545, A-615, A-620, A-638) aholining katta qismi zardoʻshtiylikka eʼtiqod qilganligini koʻrsatadi. Sopol haykalchalar va ularning boʻlaklari (A-19, A-23, A-36, A-37, A-374, A-399, A-400, A-441, A-457, A-493) esa diniy qarashlar bilan birga kundalik hayot va marosim odatlarini ekpozitsiyalarda koʻrsatib berishda ahamiyatlidir.

Samarqand va Urgut tumanlari hududidagi koʻplab shaharchalardan vizual kuzatuvlar natijasida yigʻilgan ashyolar (A-112-153, A-159-162, A-232-245, A-260, A-263) V-IX asrlarda qishloq va shahar tipidagi manzilgohlar tarmogʻi keng rivojlanganini tasdiqlaydi. Baxshitepa, Talibarzu, Kofirqalʼa kabi yirik shaharchalardan topilgan minglab buyumlar (A-54, A-55, A-182-125, A-183) ushbu hududlarning iqtisodiy va maʼmuriy markaz boʻlganini koʻrsatadi.

Toshkent, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo va Fargʻona hududlariga oid kolleksiyalar ilk oʻrta asrlarda hududlararo madaniy birlik mavjud boʻlganini koʻrsatadi. Qovunchi, Alimboytepa, Sheralisoy (A-296-305), Varaxsha va Oyoqtepa (A-385), Yerqoʻrgʻon (A-529), Polvontepa va Shoʻrtepa (A-428-431) yodgorliklaridan topilgan ashyolar hunarmandchilik va savdo tarixini yoritishda, Qoratepa, Zartepa va Hayrabod (A-386), Quva (A-493) va Axsikent (A-485) ashyolari esa diniy va iqtisodiy aloqalar tarixini koʻrsatib berishda yordam beradi.

Ilk oʻrta asrlar davrining yozuv va tashqi aloqalarini ifodalovchi noyob topilmalardan biri Afrosiyobdan aniqlangan soʻgʻd yozuvi tushirilgan xum boʻlagi [2] (A-598) hamda Xitoyda tayyorlangan bronza oyna [3] (A-626) hisoblanadi. Bu buyumlar Buyuk Ipak yoʻli tarixini, umuman savdo-madaniy aloqalar tarixini yoritishda ahamiyatlidir.

Ilk oʻrta asrlar davriga oid ashyolarning umumiy soni 13392 donani tashkil etib, Oʻzbekistonning barcha hududlaridan yigʻilgan. Ashyolarning hususiyatiga koʻra V-IX asrlarda shahar madaniyati, hunarmandchilik, diniy qarashlar va madaniy uzviylikning yuqori darajada rivojlanganini tushunish mumkin. Shu bilan birga bu kolleksiyalar antik davr anʼanalari bilan islomiy davr madaniyati oʻrtasidagi oʻtish jarayonlarini yoritishda yordam beradi.

Rivojlangan oʻrta asrlar davriga oid arxeologik ashyolar IX-XIII asrlarda yuz bergan madaniy, iqtisodiy va ilmiy taraqqiyot jarayonlarini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Ushbu davrda shahar madaniyatining ravnaq topishi, hunarmandchilikning yuqori darajada ixtisoslashuvi, savdo-pul munosabatlarining kengayishi hamda meʼmorchilik va bezak sanʼatining yuksalishi kuzatiladi. Arxeologik kolleksiyalar aynan shu jarayonlarning moddiy ifodasi sifatida muzey ekspozitsiyalarida namoyish etiladi.

Samarqand viloyatiga oid sirlangan va sirlanmagan sopol buyumlar ushbu davrning asosiy ashyolari sirasiga kiradi. X-XII asrlarga mansub sirlangan idishlar majmuasi (A-1), Afrosiyob shaharchasidan aniqlangan IX-XII asrlarga oid arxeologik ashyolar [4] (A-2, A-273, A-281, A-361, A-458, A-484, A-499) shahar hunarmandchiligining yuqori darajada rivojlanganini koʻrsatadi. Ayniqsa, Afrosiyobdan topilgan minglab sopol buyumlar, ularning boʻlaklari va ishlab chiqarish vositalari [5] (OA-26, OA-27, OA-35, OA-42, OA-54, OA-96) shaharda kulollar mahallalari mavjud boʻlganini tasdiqlaydi.

Bu davrda kundalik hayot va xoʻjalik faoliyatini yorituvchi buyumlar orasida simob koʻzachalari alohida oʻrin tutadi. Samarqand viloyatidan aniqlangan simob koʻzachalari majmualari [6] (A-16, A-17, A-18, A-35, A-57, A-417, A-539, A-570, A-582, A-637) tibbiyot, kimyo va texnik bilimlar rivojlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, suyakdan ishlangan buyumlar [7] (A-20, A-46, A-56), ip yigiruv toshlari, metall buyumlar va tarozi toshlari [8] (A-27, A-536, A-645, A-649) hunarmandchilik tarmoqlarining keng koʻlamidan dalolat beradi.

Shisha buyumlar majmualari bu davrda oʻz davri uchun yuqori texnologiyalarning shakllanganidan dalolat beradi. Samarqand viloyati va Afrosiyob shaharchasidan topilgan shisha idishlar va ularning parchalari [9] (A-31, A-32, A-47, A-109) shisha ishlab chiqarish markazlari faoliyat koʻrsatganini tasdiqlaydi. Zargar ustaxonasiga oid ashyolar va marjon bezaklar [10] (A-62, A-373) esa nafis sanʼat va zargarlik madaniyatining yuksak darajasini aks ettiradi.

Bu davr meʼmorchiligi va bezak sanʼati alohida boy arxeologik ashyolar bilan ifodalanadi. Afrosiyob va boshqa shaharlardan topilgan alebastr va ganch panellar [11] (A-94, A-97, A-439, A-443), naqsh muhrli gʻishtlar [12] (A-96), oʻyma sopol boʻlaklari [13] (A-72-75, A-284, A-368), meʼmoriy qoplama boʻlaklari [14] (A-90, A-292, A-406, A-407), Somoniylar maqbarasi [15] (A-291), Bibixonim maqbarasi atrofidan topilgan ashyolar [16] (A-580, A-588) va Shoxizinda ansambliga oid topilmalar [17] (A-574, A-579) IX-XV asrlar meʼmoriy anʼanalarini namoyish etishda muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Bu davrning diniy va mafkuraviy hayoti ham arxeologik ashyolarda aksini topgan. Qabrtosh-qayroqlar va qabr gʻishtlari (A-65-69, A-476, A-528, A-496), xristianlik diniga oid yozuvli tosh

(A-308) hamda Sulaymontepa xristian ibodatxonasiga oid ashyolar [18] (A-609) muzey-qo'riqxonada tarkibidagi "Diniy bag'rikenlik va millatlararo totuvlik" muzeyida namoyish etilsa muzeyning jozibadorligi yanada oshgan bo'lar edi. Hozirda mazkur muzeyda faqatgina turli milliy markazlar tomonidan taqdim qilingan zamonaviy ashyolar namoyish etilmoqda. Bu esa O'zbekiston hududida "millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik" tushunchalarining tarixi ming yillarga borib taqalishini ko'rsatib berolmaydi.

Samarqanddan tashqari, Buxoro, Shahrisabz, Termiz, Axsikent, Poykend, o'ratepa, o'zgan, Ko'hna Urganch va boshqa hududlardan topilgan ilk renessans davriga oid ashyolar (A-8, A-284, A-291, A-405, A-494, A-558, A-470, A-487) hududlararo iqtisodiy va madaniy aloqalar taraqqiyotini namoyis etishda qo'l keladi. Xitoyda tayyorlangan bronza oyna [19] (A-636) va Marv yaqinidan topilgan metall buyumlar [20] (A-470) Buyuk Ipak yo'li doirasidagi xalqaro aloqalarni yoritishda ishlatilishi mumkin va bunday ashyolar yaxshi samara beradi. IX-XII asrlarga oid arxeologik ashyolarning umumiy soni 15 868 donani tashkil etib, ilm-fan, hunarmandchilik, shahar madaniyati va me'morchilikning yuksak namunalari ko'rsatib beruvchi bir necha ekspozitsiyalar, muzeylar tashkil etishga yetadi.

Temuriylar davriga oid arxeologik kolleksiyalar davlat boshqaruvi, shaharsozlik, me'morchilik, ilm-fan va san'at yuksak darajaga ko'tarilgan davrni yoritadi. XIV-XV asrlar davomida Samarqand va Shahrisabz mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga ega siyosiy hamda madaniy markazlarga aylangan bo'lib, bu jarayon topilmalarda aks etgan.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasida Amir Temur va temuriylar davriga oid noyob ashyolar saqlanadi. Ularning katta qismi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 26-maydagi 259-sonli qaroriga asosan Temuriylar tarixi davlat muzeyiga o'tkazilga [21]. Bular 700 dan ortiq turli tangalari va 80 ga yaqin arxeologik ashyolar hisoblanadi.

Shunga qaramay Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida temuriylar davriga oid salmoqli hajmdagi kolleksiyalar saqlanib qolgan. Samarqand shahridan aniqlangan Temuriylar davri arxeologik ashyolari mazkur kolleksiyalarning asosiy qismini tashkil etadi. Mirzo Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi hududlaridan topilgan arxeologik ashyolar [22] (A-4, A-81, A-259, A-564, A-625) ilm-fan va ta'lim tizimining yuksak darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, rasadxona bilan bog'liq marmar qoplamalar, me'moriy qismlar va turli asboblarning bo'laklari Temuriylar davrida astronomiya fanining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangani bildiradi. Mazkur kolleksiyalardagi aksariyat ashyolar hozirda Mirzo Ulug'bek muzey-majmuasida namoyish etilmoqda.

Shohizinda ansambliga oid arxeologik kolleksiyalar [23] (A-70, A-82, A-257, A-575, OA-108, KA-33) Temuriylar davri maqbara me'morchiligi va bezak san'ati haqida muhim ma'lumotlarni beradi. Amir Temur va Oqasaroy maqbaralari bilan bog'liq topilmalar [24] (A-93, A-250, A-253, A-370, A-559, A-566, A-573, A-612, A-32) hukmdor shaxsiga e'tibor va maqbaraning murakkab me'moriy yechimlarga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Ushbu kolleksiyalar vositasida ko'rsatilgan me'moriy yodgorliklarda ham ekspozitsiya tashkil etish mumkin va bu sayyohlar oqimini ko'paytiradi.

Temuriylar davri saroy madaniyati va ma'muriy binolariga oid topilmalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chil ustun saroyi (A-92, A-283), Registon maydoni hududidan aniqlangan ashyolar [25] (KA-1) saroy va ma'muriy binolarning badiiy jihatdan nihoyatda boy bo'lganini ko'rsatadi. Kolleksiyalardagi freska bo'laklari, marmar panellar, mayolika va sirlangan sopol buyumlar Temuriylar davrida monumental san'atini namoyish qilishda yaxshi samara beradi.

Hunarmandchilik va kundalik hayotga oid ashyolar ham Temuriylar davri kolleksiyalarida muhim o'rin tutadi. Sirlangan sopol buyumlar va mayolika bo'laklari (A-76, A-251, A-478), chinni, nefrit va seladon buyumlar (A-175) saroy va zodagonlar muhitida nafis buyumlar keng qo'llanilganini ko'rsatadi. Shuningdek, mato bo'laklari (A-254), bronza idishlar (A-586, A-634) va xo'jalik ashyolari Temuriylar davrining moddiy madaniyati xilma-xilligini aks ettiradi. Bularning barchasi [26] muzeylarda temuriylar davri maishiy turmushini aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Shohruxiya shaharchasidan topilgan ashyolar [27] (A-447) esa Temuriylar davlati hududida yirik shaharlar tarmog'i mavjud bo'lganini tasdiqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, temuriylar davriga oid ashyolar XIV-XV asrlarda o'rta Osiyoda davlat qudrati, ilm-fan, me'morchilik va san'atning yuksak darajasini namoyish etishda muhim ahamiyatga egadir. Ashylarning umumiy soni 5243 donani tashkil etib, bu temuriylar davrini nafaqat yozma manbalar, balki arxeologik ashyolar asosida ham chuqur o'rganish imkonini beradi. Shu o'rinda Samarqand temuriylar davlatining poytaxti bo'lganligi, shuningdek, muzey-qo'riqxonalar fondlarida davrni turli jihatlarini ochib beradigan shuncha ashyolarning borligiga qaramay hozirgacha mazkur shaharda temuriylar tarixiga bag'ishlangan muzey yo'qligi ajablanarlidir. Ko'rib chiqilgan ashyolar vositasida davr tarixini ko'p tomonlama ko'rsatib beruvchi muzey tashkil etish mumkin.

Muhokama. Tahlil qilingan kolleksiyalar O'rta Osiyoda o'rta asrlar davomida madaniy uzviylik va evolyutsion taraqqiyot mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Ashylarning harakteriga ko'ra, ilk o'rta asrlarda shakllangan shahar-hunarmandchilik an'analari rivojlangan o'rta asrlarda yuksak texnologik bosqichga, temuriylar davrida esa monumental madaniyat darajasiga yetganligini namoyish etish mumkin.

Arxeologik ashyolar diniy qarashlar transformatsiyasini ham ko'rsatadi. Chunki zardushtiylikdan islomga o'tish jarayoni moddiy madaniyatda izchil aks etgan. Muzeyshunoslik nuqtai nazaridan kolleksiyalar salohiyati yuqori bo'lib, ularning asosida tematik ekspozitsiyalar va maxsus muzeylar tashkil etish mumkin. Xususan, Samarqandda Temuriylar tarixiga bag'ishlangan alohida muzey tashkil etish ilmiy va turistik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondlarida saqlanayotgan o'rta asrlar arxeologik kolleksiyalari V-XV asrlar davomida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning moddiy aksini kompleks yorituvchi noyob manba majmuasini tashkil etadi. Tadqiqot natijalari ushbu kolleksiyalar xronologik jihatdan uzluksiz (ilk o'rta asrlar - rivojlangan o'rta asrlar - temuriylar davri) va hududiy jihatdan keng qamrovli ekanini ko'rsatdi.

Ilk o'rta asrlar ashyolari shahar va qishloq manzilgohlar tarmog'ining kengayishi, hunarmandchilik va savdo aloqalarining shakllanishi hamda zardushtiylik e'tiqodining ustuvorligini tasdiqlaydi. Rivojlangan o'rta asrlar kolleksiyalari kulolchilik, shishasozlik, metallga ishlov berish, tibbiyot va savdo tizimlari yuqori darajada ixtisoslashganini, shuningdek, me'morchilik va bezak san'ati yuksalganini ko'rsatadi. Temuriylar davri materiallari esa Samarqandning ilm-fan, me'morchilik va saroy madaniyati markazi sifatidagi maqomini arxeologik jihatdan asoslaydi.

Diniy xarakterdagi topilmalar zardushtiylikdan islomga o'tish jarayonining moddiy madaniyatda izchil aks etganini tasdiqlaydi. Shu jihatdan kolleksiyalar nafaqat alohida davrlarni, balki sivilizatsion uzviylikni ham yoritadi.

Muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tahlil shuni ko'rsatdiki, kolleksiyalar hajmi va mavzu xilma-xilligi ularning asosida tematik ekspozitsiyalar, ixtisoslashgan muzeylar tashkil etish imkonini beradi. Xususan, Temuriylar davriga oid yirik arxeologik majmualar mavjud bo'lishiga qaramay Samarqandda mazkur davrga bag'ishlangan arxeologik yo'nalishdagi alohida muzeyning yo'qligi ilmiy-madaniy jihatdan bo'shliq hosil qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi o'rta asrlar kolleksiyalari O'rta Osiyo tarixining V-XV asrlar oralig'idagi evolyutsion rivojlanishini moddiy manbalar asosida tiklash, hududlararo aloqalar va madaniy uzviylikni aniqlash hamda zamonaviy muzey ekspozitsiyalarini boyitishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 1,2,3 inventar kitoblari
2. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 71 inventar kitob, 87-89 betlar

3. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 72 inventar kitob, 73-75 betlar
4. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 1,10,37,48,56,59,67 inventar kitoblar
5. Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 1,2,3 inventar kitoblari
6. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 2,18,19,20,47,65,71,72 inventar kitoblar
7. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 3,34, 61 inventar kitoblar
8. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 18,71,72 inventar kitoblar
9. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 3,18,44,61 inventar kitoblar
10. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 10,50 inventar kitoblar
11. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 47,49 inventar kitoblari
12. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 34 inventar kitob
13. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45,63 inventar kitoblar
14. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 38,45,47 inventar kitoblar
15. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 38 inventar kitob
16. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 67,71 inventar kitoblar
17. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 60,71 inventar kitoblar
18. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 44,47,50, 71 inventar kitoblar
19. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 72 inventar kitob, 103-105 betlar

20. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 65 inventar kitob, 78-85 betlar
21. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi Hisobdan chiqarish dalolatnomalari kitobi. 2008 yil
22. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 12,37,39,71,71 inventar kitoblari
23. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 44,45,62, Afrosiyob muzeyi arxeologik kolleksiyalari 3, Samarqand viloyati o'kashunoslik muzeyi 3 inventar kitoblari.
24. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 45,47,49,60,72 Samarqand viloyati o'kashunoslik muzeyi 1 inventar kitoblari.
25. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 37,47, Samarqand viloyati o'kashunoslik muzeyi 1 inventar kitoblari.
26. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 9,45,57,71,72 inventar kitoblari
27. O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi arxeologik kolleksiyalari 49 inventar kitobi